

**NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA O'YIN FAOLIYATI  
ORQALI KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MUSTAQIL  
FIKRLASHGA O'RGATISH**

**Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti,

Ish joyi: Toshkent shahar Olmazor tumani 432-DMTT, tarbiyachi

[mushtariyabidjonova06@gmail.com](mailto:mushtariyabidjonova06@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutq o'stirish mashg'ulotlarida o'yin faoliyati orqali katta maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish mavzusi, bolalar rivojlanishida muhim ahamiyatga egaligi haqida ko'rib chiqilgan. Katta maktabgacha yoshdagi bola uchun bu davr fikrlash qobiliyatini faollashtirish, o'zini va atrof-muhitni anglash jarayonlarining tezkor rivojlanish davri hisoblanadi. Shuningdek bu davrda bolalar juda ko'p bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar va albatta mustaqil fikrlash, turli vaziyatlarga moslashish kabi qobiliyatlarni o'zlarida shakllantiradilar. O'yinlar bolalarning nutqini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida o'yinlar orqali bolalarga erkin fikrlashni o'rgatish, ularni mantiqiy fikr yuritishga, tanqidiy qarashlarni shakllantirishga yordam beradi. O'yin jarayonida bolaning nutqi, so'z boyligi va kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi. O'yinlar orqali mustaqil fikrlash va nutqni o'stirish o'zaro bog'liq jarayondir, bu esa bolalarning umumiyligi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Nutq, mashg'ulot, o'yin faoliyati, mustaqil fikrlash, kreativlik, so'z boyligi, o'zlashtirish, fikrni ifoda etish, tanqidiy qarash, ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish.

**Abstract:** In this article, the topic of teaching preschool children to think independently through game activities in speech development classes, its importance in children's development is considered. For a child of senior preschool age, this period

is a period of rapid development of the processes of activation of thinking, self-awareness and the environment. Also, during that period, children acquire a lot of knowledge and skills, and of course, they develop abilities such as independent thinking and adaptation to different situations. Games are an effective means of improving children's speech. Teaching children to think freely through games in speech development classes helps them think logically and form critical views. During the game, the child's speech, vocabulary and communication skills develop. Developing independent thinking and speech through games is an interdependent process, which has a positive effect on the overall development of children.

**Key words:** Speech, exercise, game activity, independent thinking, creativity, vocabulary, acquisition, expression of opinion, critical view, creative thinking, problem solving.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'limga tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli<sup>1</sup> farmoni ijrosini ta'minlash hamda maktabgacha ta'limga muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish va maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017 — 2021-yillarga mo'ljallangan dastur<sup>2</sup> bo'yicha maktabgacha ta'limga muassasalarida 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta'limga tayyorlash bo'yicha 6100 ta qisqa muddatli guruh tashkil etildi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'limga muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish ishlari va 2200 ta maktabgacha ta'limga muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan qishloq joylarda maktabgacha ta'limga muassasalarini yangidan qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihoz, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimediali vositalar bilan ta'minlandi. Respublikamiz tomonidan bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 30.09.2017 yildagi PQ-3305-son

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.12.2016 yildagi PQ-2707-son

hamma sharoitlar yaratilmoqda, shu bilan birga bolaning ta'lrim olishi yanada osonlashmoqda. Hozirgi kunda esa bolalarning nutqini oshirish uchun turli xil talablar qo'yilmoqda. Har bir bolaning nutqiy darajasi bir xil bo'lmaydi va bir biridan farq qiladi. Shu bilan birga nutqni rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri bu ona tilini bolaning hayotiga olib kirish va o'z tiliga ko'proq mehrini oshirishdir, shu bilan birga bolaning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Maktabgacha ta'lrim bola hayoti va kelajagi uchun katta muhim ro'l o'ynaydi va bu davr katta hayotning boshlang'ich qismi bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu davrda bolaning o'qishga bo'lgan hoxish va istagi oshadigan davr hisoblanib, bolani sog'lom va yetuk inson bo'lib shakllanishida katta ro'l o'ynaydi. Bola ikki yerda ta'lrim oladi, uyida ota-onalaridan oladigan tarbiya va maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida yani tarbiyachilaridan oladigan tarbiyadir. Har ikkala tomonda ham ota-onsa va tarbiyachilar ham bolaning nutqini o'sishi ustida ishlaydilar, lekin bu jarayon ikkala tomonda turli xil bo'ladi. Ammo hammasini birlashtiradigan narsa bu o'yin orqali nutq oshirish metodlaridir. Bola juda ham erta yoshdan to'g'ri yo'lda rivojlanishi uchun yo'naltirish kerak bo'ladi. Chunki bolaning yoshlida olgan fundamental kuchli bilimlari uchun hayoti davomida yengilmas sherik bo'lib unga xizmat qiladi. Ayniqsa Respublikamizda maktabgacha ta'lrim tizimidagi tarbiyachilar, pedagoglar yuqori darajada zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishlari doimgidan ham muhimroqdir. Shu bilan birga bola uchun birinchi bo'lib qo'yiladigan vazifa uning nutqini yangi darajaga ko'tarishdir. Ona tilini amaliy tarzda o'rgatish, nutqda til birliklaridan to'g'ri foydalanish, bolalarga o'zaro muloqotda tilni aniq va tushunarli ifodalashni o'rgatish, nutq me'yorlariga riosa qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishning eng samarali usullarini qo'llash zarur. Ushbu jarayon bolalar o'rtasida tushunish, nutqni to'g'ri ajratishni o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Nutq o'stirishda bolalar faqat tilni o'rganish bilan cheklanib qolmay, xulq-odobni, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni ham oshiradi. Nutqni to'g'ri ishlatish, tinglash va anglash ko'nikmalari bolalarda o'z fikrlarini aniq ifodalashga, to'g'ri muloqot qilishga, hamda jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Tarbiyachilar chet elda malaka oshirish ishlarini olib borib, bola tarbiyasi uchun yangi metodlar

yaratishmoqda va dunyo miqyosidagi turli xil interfaol metodlardan foydalanishmoqda. MTTlarga raqamli texnologiyalar kirib kelishi bilan bolalarning ta’lim olish jarayoni yanada qiziqarli bo’ldi va tarbiyachilar uchun yangi imkoniyat bo’lib xizmat qildi. Ushbu imkoniyatlar orqali katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o’yin orqali nutq o’stirish mashg’ulotlari yanada osonlashdi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida o’yin juda katta ahamiyatga egadir. O’yinlar bola hayotida ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan bo’lib, bolalarni mehnat qilishga tayyorlashga xizmat qiladi. Nutq orqali bolalarning his-tuyg’ulari kuchayadi va ular fikr almashadilar. Nutq bolalar o’rtasida do’stona aloqlar o’rnatalishi va atrofdagi voqealar hamda hodisalarga bir xil nuqtai nazardan yondashishga yordam beradi. Bu, bolalar o’rtasidagi o’zaro tushunish va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bolalarga turli hayotiy vaziyatlarga bir xil yondashuvni o’rgatish, ularni umumiyl fikrlar va qarorlar asosida birlgilikda harakat qilishga undaydi. O’yin orqali bolaning nutqi keskin oshishini yana bir sababi, bola hech qachon jim o’ynamaydi va u bir o’zi bo’lsa ham o’yin jarayonida har xil tovushlar chiqaradi, ya’ni o’zi yaratgan obraz bilan do’stona muloqot qiladi, akasi biznesmen yoki haydovchi bo’lishi xullas hammaning o’rniga bolaning o’zi gapiradi va shu orqali nutq bolaning obrazini mukammal ochilishiga yordam beradi. Lekin texnologiyalar rivojlanib ketgani bilan birga o’yinlar ham samarali va samarasiz turlarga bo’linadi, demak katta maktabgacha yoshdagi bola uchun to’g’ri o’yin tanlash ham juda muhim o’rinda turadi. O’yin va ta’lim o’zaro bog’liqdir va bola uchun o’yin bu o’z tasavvuridagi haqiqiy hayotdir. O’yin orqali bola shaxsi tarbiyalanadi va bolalar kattalarning hayot tajribasini, axloq qoidalarini, mulohaza va muhokamalar kabi qobiliyatlarni egallab oladilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqlishi, ruhiy va jismoniy xususiyatlari, hayotiy tajribasi va iqtidorini o’yin orqali tobora rivojlanishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o’yin juda ham muhim ro’lni egallaydi. Chunki bola bu yoshda nimani o’rganmasin u o’yin orqali o’rganadi. O’yin orqali bola nutqini oshiradi va atrofidagi dunyoni yanada yaqinroqdan o’rganadi. Bu yoshdagi bolalar uchun o’yin o’ynash istagi esa bolaning ta’lim olishiga va o’z bilimlarini yanada oshirishiga

qaratilgan bo'lishi kerak. O'yin bolaning nafaqat nutqini rivojlantirishda, balki har tomonlama ta'sir qiladi. Masalan, xotira, diqqat, his va tuyg'ulari, fikrlash va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. O'yin orqali bola nafaqat atrof-muhitni, balki ularga xos xususiyatlarni ham o'rganadi. Shu bilan birga, o'yin bolaga nutqni rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ijod qilishi uchun yo'l ochib beradi. Juda ko'plab psixologlar va pedagoglar o'yinning bolalar psixologik rivojlanishiga ta'sirini o'rganib, uning ahamiyatiga katta va bolaga samimiy ta'sir etishini isbotlaganlar. O'yin bolaning o'ziga xos tarzda hayotni tushunishiga imkon beradi. O'yinning qiziqarli va oson tushuniladigan tabiat, bolalar uchun yengillik yaratib beradi. Agar o'yinlar samarali tashkil etilsa, u bolalarning faoliyat jarayonida yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi. Innovatsion dasturlar asosida tashkil etilgan o'yinlar bolalarning faoliyatini oshiradi, ularning muhim ijtimoiy tasavvurlari va munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har bir ota-onada o'z farzandini aqli va yetuk, baxtli va har tomonlama rivojlangan mustaqil bola bo'lib, farzandlari qiyinchilik ko'rishini istashmaydi. Buning uchun esa avvalo mustaqil fikrlay oladigan yosh avlodni tarbiya qilish uchun atrof muhitini yaratib bergen ota-onalarga va shu bilimlarni bola hayotiga singdirib uni rivojiga katta hissa qo'shayotgan va o'z bilimlariga ega bo'lgan kuchli tarbiyachilarimizning o'rni katta albatta. Katta mакtabgacha yoshdagi bolalarni har xil metodlar asosida yanga bilimlarni tez va samarali o'zlashtirishi uchun ularga tarbiyachilar tomonidan bolaning yoshini, bilim imkoniyatlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etadi. Bularning hammasi o'zaro bog'liqdir. Bola o'yin orqali nutqini oshiradi, nutq oshishi bilan birga uning bilimi va dunyo qarashi o'zgara boshlaydi. Hozirda juda ham ko'p raqamli texnologiyalar asosidagi nutqni yanada rivojlantiruvchi o'yinlar mavjud. Bu metodlarni yana bir afzal tomoni shuki, o'yinlar orqali bolalar yangi texnologiyalar bilan tanishadilar va shu orqali ularning nutqini to'g'ri va ravon ishlashiga yana bir qadam bo'lib xizmat etadi. Interaktiv dasturlar va ilovalar orqali esa katta mакtabgacha yoshdagi bolalar har xil vaziyatlarda nutqni qo'llashni o'rganadilar, mantiqiy fikr doiralarini rivojlantiradilar va albatta so'z boyliklarini kengaytiradilar. Bolalar uchun mobil telefonlar va

planshetlarga mo'ljallangan turli interaktiv o'yinlar turli so'zlar va iboralar bilan ishslashni qulay, oson va qiziqarli qiladi. Bunday o'yinlar bolalarga hayotiy vaziyatlarda nutqni qanday ishlatalishni o'rganishga yordam beradi, ularni muloqotda ishtirok etishga undaydi va o'z fikrlarini ifoda etishda erkinlikni shakllantiradi. Chunki o'yin orqali bola o'zi yaratgan dunyoda yana bir marta yashaydi. Shu orqali bolaning nafaqat nutqi balki xar tomonlama yanada yuksaladi va dunyoni o'z tasavvuridagi qilib o'zgartirishga harakat qiladi, katta rejalar qo'yib uni qo'lga kiritishga harakat qiladi. Britani<sup>3</sup>yada maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o'yin orqali rivojlantirish yo'llari juda ham qiziqarli va zavqli o'tadi. Bu haqida ular ushbu metodlarni aytib o'tishgan. O'yinlar odatda bola uchun yangi bo'lgan so'zlarni qo'llashda mashq qilishlari va o'zlarini erkin ifoda etishlari mumkin bo'lgan qiziqarli va qulay atmosferani yaratib beruvchi instrument hisoblanadi. Ko'ngilochar va qiziqarli tadbirlarda qatnashish til va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Bu, shuningdek, katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy jihatdan ko'proq ishonch hosil qilishiga yordam beradi va do'stlikni mustahkamlashning bir usuli bo'lib xizmat qiladi. O'yinda nafaqat zavq, balki o'yin vaqtini ham faoliyatli o'tkazish muhimdir. So'z o'yinlari, turli xil hazillar, topishmoqlar, qofiyalar, hikoyalar, qo'shiqlar va albatta tilning burishishi kabi nutq rivojlantirish metodlari juda ham samarali. So'z o'yinlari bolaning so'z boyligini kengaytiradi. Bu, uyda yoki sayohat paytida narsalarni ko'rsatish kabi oddiy bo'lishi mumkin, masalan. "Men endi sariyog'ni xamirga aralashtiraman" yoki "Baland binolar osmono'par binolar ham deyiladi". Ushbu so'zlar haqida o'z ta'rifingizni bersangiz bolaning tushunchasi yanada oshadi va bolaning so'z boyligi va muloqot qobiliyatları oshadi. Hazillar orqali esa, bolaning yoshiga mos bo'lgan yaxshi hazillar esa, ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek bolalar uchun mo'ljallangan hazil kitoblar va navbatma-navbat aqli hikoyalar aytib berish ham bola uchun nutqini oshirishga ijobiy ta'sir qiladi. Katta maktabgacha

<sup>3</sup> 2025 British Council

The United Kingdom's international organisation for cultural relations and educational opportunities.

The British Council in Malaysia is a branch (200902000059 (995232-A)) of the British Council, a registered charity: 209131 (England and Wales) SC037733 (Scotland)

yoshdagи bolaning gaplarini, nutqlarini yoki artikulyatsiyasini tanqid qilishdan saqlanish kerak. Buning o'rniga, to'g'ri talaffuz yoki grammatikani to'g'ri tarzda takrorlash orqali namuna bo'lgan ma'quldir. Topishmoqlar yordamida so'zlarni ishlatish va sahnalar yoki vaziyatlarning rasmlarini chizishning qiziqarli usulidir. Bolalarga topishmoqlar aytib, bitta so'zning turli xil ta'riflarini tushuntirib borish lozim. Qofiyalarni takroriy kuylash, o'qish, yozish yoki eshitish nutqni rivojlantirishdan tashqari, yaxshi tinglash qobiliyatları va xotirani saqlashga yordam beradi. Shuningdek, uyda ham biron bir ish mobaynida qofiyali so'zlar bilan aytib berish yoki bolaning qofiyali so'zlar yordamida sevimli o'yinchoqlari haqida aytib berish ham mumkin. Hikoya orqali esa, kitoblar ko'p o'yin-kulgini ta'minlasa-da, hikoyalar - haqiqiy yoki o'ylab topilgan bo'ladi va bola bilan yaxshi muloqot qilish vaqtini ta'minlab, ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Kundalik voqealar haqida hikoyalar almashish orqali ajoyib hikoyalar bilan ularning tasavvurlarini kengaytirish mumkin va atrofdagi hamma narsa haqida hikoyalar yaratса bo'ladi, bolalar ijodi o'sishiga yaxshi turtki bo'ladi. Qo'shiqlar bo'lsa musiqiy qobiliyatlarini ishga solishdan tashqari, bolalarga yangi so'zlarni o'rganishga ham yordam beradi. Qo'shiq matni qofiya va ritmga ega, shuning uchun ularga qo'shiq aytish oson va qiziqarli bo'ladi. Bundan tashqari, mashg'ulotga shunchaki kuy qo'yish, siz bolalaringiz bilan o'ynashingiz mumkin bo'lgan qiziqarli o'yin bo'lishi mumkin. Tilning burishishi bu bolalarga so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va talaffuz qilishni o'rgatishning ajoyib va qiziqarli usuli. Agar bu metodlardan maksimal darajada foydalanilsa, so'zlar juda qiziqarli bo'ladi. Bolalar birgalikda hikoyalar, qo'shiqlar va boshqa ko'plab narsalarni to'plashlari mumkin, bu bolaning yanada aqliy darajasi oshishida yordam beradi. Bolalarga ijodiy qobiliyatlarini ochib, til ko'nikmalarini kengaytira oladigan sog'lom va qiziqarli o'quv muhitini yaratib, ularni yaxshi gapirishga undashda davom etish zarur. Bolalarga o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va harakatlarini so'zlardan foydalanish orqali qanday qilib yaxshiroq ifoda etishni ko'rsatish orqali, ularni o'sib ulg'aygan sari dunyoga ishonch bilan qarashga tayyorlaydi. Albatta bolalar o'zin davomida ko'proq suhbatlashadilar, so'zlashuvga

kirishadilar va o'zaro kommunikatsiya qilishda yanada mustahkam o'rin oladilar. O'yinlar bolalarga nafaqat yangi so'zlar va iboralarni, balki o'zaro muloqotda turli nuqtai nazardan fikr yuritishga imkoniyat yaratadi. Bu esa o'z o'rnida bolaning mantiqiy fikrini rivojlantiradi. O'yin jarayonida bola, ayniqsa o'zining takliflarini ilgari surish, o'yin qoidalarini o'rganish va ularni o'zlarini hayotida tadbiq qilish orqali o'z fikrlarini rivojlantiradilar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nutq o'stirish mashg'ulotlarida o'yin faoliyati orqali katta mактабгача yoshdagи bolalar mustaqil fikrlashni o'рганадilar va bu ular uchun juda muhimdir. MTTlardagi bolalar uchun nutq o'stirish faqatgina so'zlarni o'rgatish emas albatta, ularni fikrlash qobiliyatları, mantiqiy fikr yuritishlari, ularning ijodkorligi va mustaqil qaror qabul qila bilishlarini ham rivojlantirishdir. O'yin eng samarali vosita bo'lib, bolalar o'yin orqali nafaqat o'z fikrlarini ifodalashni o'рганадilar, balki atrofdagi voqealar va holatlarni tahlil qilib, mustaqil xulosalar chiqara oladilar. Shuningdek, o'yinlar bolalarning ijodiy fikrlash doirasini kengaytirib, turli xil holatlarga kreativ yechim topishga yordam beradi. Masalan, o'zлари o'ylab topgan qahramonlarga mos keladigan hikoyalar o'ylab topib, yangi imkoniyatlar va muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni qo'llashda mustaqil fikrlashni shakllantirishda yordam beradi. Natijada, nutq o'stirish mashg'ulotlarida o'yin faoliyati orqali bolalar nafaqat nutqni rivojlantirishadi, balki mantiqiy, ijodiy, va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham o'zlashtiradilar. O'yinlar bolaning o'z fikrini o'zgalar bilan almashish, tinglash, o'rganish va boshqalar bilan hamkorlikda yangi g'oyalar yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi, bu esa ularning keljakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Raqamlı texnologiyalar asosida nutqni rivojlantirish bolalar uchun samarali o'quv vositasidir. Interaktiv dasturlar va ilovalar orqali bolalar so'z boyligini oshiradilar va muloqot qobiliyatlarini mustahkamlaydilar. Bunday texnologiyalar esa bolalarga nutqni to'g'ri ishlatish, talaffuzni yaxshilash va o'z fikrlarini aniq ifoda etish imkonini beradi. Raqamlı texnologiyalar asosida o'yinlar va multimediali materiallar yordamida bolalar nutqni o'rganishda yanada qiziqarli va samarali bo'ladi. Chunki hozirgi kunda raqamlı texnologiyalar barchani shu bilan birga bolalarning ham hayotida o'z o'rnini topgan va

bolalar uchun aynan raqamli texnologiyalar asosida darslar tushunarli va qiziqarli bo'ladi. Bu, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-3362881>
2. <https://lex.uz/docs/-3090103>
3. <https://www.britishcouncil.my/english/courses-children/resources/fun-activities-that-develop-language-learning>